

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI  
JAHON ADABIYOTI VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

**“SHARQ MUMTOZ POETIKASI  
MUAMMOLARI:  
NAVOIY VA RUMIY”**

*mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy  
konferensiya materiallari  
2025-yil, 22-aprel*

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND  
INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
ALISHER NAVAI TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE  
DEPARTMENT OF WORLD LITERATURE AND  
COMPARATIVE LITERATURE

*Proceedings of the international  
scientific-theoretical conference titled*

**“ISSUES IN ORIENTAL CLASSICAL  
POETICS: NAVO'I AND RUMI”**

*April 22, 2025*

Toshkent  
“Nurafshon business”  
2025

**UO'K 845.711.05**

**KBK 133.585.3**

“Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent: Nurafshon business, 2025. – 1016 b.

**ISBN 978-9910-8871-6-1**

**Mas’ul muharrir:**

**Shuhrat Sirojiddinov,**

*filologiya fanlari doktori, akademik*

**Tahrir hay’ati:**

Shuhrat Sirojiddinov (O‘zbekiston), Münevver Tekcan (Turkiya), Uzoq Jo‘raqulov (O‘zbekiston), Agnieska Vojta (Germaniya), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Rukhsana Iftikhar (Pokiston), Almaz Ulviy (Ozarbayjon), Suvon Meli (O‘zbekiston), Sergey Nikonorov (Rossiya), Akibatxan Ismanova (Qirg‘iziston), Makpal Orazbek (Qozog‘iston), Aleksey Pilev (Rossiya), Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Shafiqa Yorqin (Afg‘oniston), Amir Ne‘mati Lima‘i (Eron), Nafas Shodmonov (O‘zbekiston), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (O‘zbekiston), Gulnoz Xalliyeva (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston).

*Sharq-islom madaniyatining ikki buyuk vakili – Alisher Navoiy va Jaloliddin Rumiy ijodi badiiyati, tarixiy-tipologik xossalari ilmiy-nazariy tadqiq etishga qaratilgan “Sharq mumtoz poetikasi muammolari: Navoiy va Rumiy” mavzuidagi mazkur konferensiya materiallari ulkan geografik ko‘lami, tipologik talqinlari, tahliliy xulosalari bilan o‘ziga xosdir. To‘plam to‘rt bo‘limdan tashkil topgan. Har bir bo‘lim o‘zicha mustaqil ilmiy muammoni aks ettirishi bilan birga, Navoiy va Rumiy poetikasi sathida o‘zaro umumlashadi, jahon adabiyoti, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarixiy hamda nazariy poetika, hozirgi adabiy jarayon muammolarini aks ettirishi bilan ma‘naviy-ma‘rifiy, badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi.*

*Ilmiy to‘plam adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, tarjimashunoslik bilan shug‘ullanayotgan doktorant, tayanch doktorantlar; magistrant va bakalavriyat bosqichi talabalari, shuningdek, badiiy adabiyot masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.*

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 3-apreldagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Mualliflar qarashlari tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.**

© “Nurafshon business”, 2025.

**UDC 845.711.05**

**KBK 133.585.3**

Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference on the topic "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" – Tashkent: Nurafshon Business, 2025. – 1016 pages.

**ISBN 978-9910-8871-6-1**

***Editor-in-Chief:***

**Shuhrat Sirojiddinov,**

*Doctor of Philological Sciences, Academician*

***Editorial Board:***

Shuhrat Sirojiddinov (Uzbekistan), Münevver Tekcan (Turkiye), Uzoq Jo'raqulov (Uzbekistan), Agnieszka Wojta (Germany), Nozliya Normurodova (Uzbekistan), Rukhsana Iftikhar (Pakistan), Almaz Ulviy (Azerbaijan), Suvon Meli (Uzbekistan), Sergey Nikonorov (Russia), Akibatkhon Ismanova (Kyrgyzstan), Makpal Orazbek (Kazakhstan), Aleksey Pilev (Russia), Nurboy Jabborov (Uzbekistan), Shafiqqa Yorqin (Afghanistan), Amir Ne'mati Lima'i (Iran), Nafas Shodmonov (Uzbekistan), Rakymjan Turysbek (Kazakhstan), Dilmurod Quronov (Uzbekistan), Gulnoz Khalleyeva (Uzbekistan), Dilnavoz Yusupova (Uzbekistan).

*The present conference proceedings, titled "Issues in Oriental Classical Poetics: Navoi and Rumi" focus on the scholarly and theoretical exploration of the artistic, historical, and typological dimensions of the works of two eminent figures of Eastern-Islamic culture – Alisher Navoi and Jalaluddin Rumi. With its broad geographical scope, comparative perspectives, and analytical insights, the collection offers a unique contribution to the field. The volume is organized into four sections. Each section explores a distinct scholarly issue while also highlighting the shared poetic features and mutual influences in the works of Navoi and Rumi. The discussions extend to themes in world literature, comparative literary studies, historical and theoretical poetics, and contemporary literary discourse, contributing to both intellectual and aesthetic understanding.*

*This collection is intended for doctoral and postgraduate researchers, as well as master's and undergraduate students in fields such as world literature, literary theory, literary criticism, comparative literature, translation theory, and translation studies. It may also be of interest to anyone engaged in the study of artistic literature.*

The publication was recommended by the Scientific and Technical Council of Alisher Navoiy Tashkent State University of Uzbek Language and Literature on April 3, 2025.

**The views expressed in the articles do not necessarily reflect those of the editorial board.**

© "Nurafshon business", 2025.

## MUNDARIJA

1.	<i>Shuhrat SIROJIDDINOV.</i> <b>IKKI BUYUK – IKKI TURK</b> ( <i>Kirishso'z ornida</i> )	15
<b>I SHO'BA</b> <b>NAVOIY VA RUMIY:</b> <b>BADIIYAT VA TIPOLOGIYA</b>		
2.	<i>Узоқ ЖЎРАҚУЛОВ.</i> <b>МУМТОЗ ПОЭТИКАДА “ИДЕАЛ ОБРАЗ” МУАММОСИ</b>	20
3.	<i>Қозоқбой ЙЎЛДОШ.</i> <b>“ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН” ДОСТОНИДА РУҲИЯТ ТАСВИРИ</b>	48
4.	<i>Сувон МЕЛИ.</i> <b>“ХАМСА”ДА МУАЛЛИФ “МЕН”И</b>	57
5.	<i>Gulnar Agig JAFARZADE.</i> <b>THE INFLUENCE OF RUMI ON ALISHER NAVAI'S PERSIAN RUBAIYAT</b>	68
6.	<i>Münevver ТЕКСАН.</i> <b>ALI SHIR NAVAI'S IMPACT ON THE TIMURID RENAISSANCE</b>	79
7.	<i>Сергей НИКАНОРОВ.</i> <b>К ВОПРОСУ О ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ЗНАЧИМОСТИ ЭПИТЕТОВ В СБОРНИКЕ “СОКРОВИЩНИЦА МЫСЛЕЙ” АЛИШЕРА НАВОИ</b>	90
8.	<i>Мақсуд АСАДОВ.</i> <b>НАВОИЙ АСАРЛАРИДА ИЖОД ВА ИЖОД АҲЛИ ТАЛҚИНИ</b>	99
9.	<i>Шоира АҲМЕДОВА.</i> <b>АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ЖАЛОЛИДДИН РУМИЙ МАКТУБЛАРИ ҲАҚИДА</b>	107
10.	<i>Гулноз ХАЛЛИЕВА, А. ЮСУПОВА.</i> <b>ЕВРОПАДА РУМИЙШУНОСЛИК ВА СУЛТОН ВАЛАДНИНГ БУЮК БРИТАНИЯДА САҚЛАНАЁТГАН АСАРЛАРИ ХУСУСИДА</b>	116

	<i>Оразбек МАҚПАЛ, Айнұр АНАПИНА.</i>	
11.	<b>ӘДЕБИЕТТЕГІ ИНТЕРМӘТІНДІЛІК: АБАЙ ШЫҒАРМАЛАРЫНЫҢ ӘЛІШЕР НАУАЙМЕН САБАҚТАСТЫҒЫ</b>	121
	<i>Сайфиддин РАФИДДИНОВ.</i>	
12.	<b>НАВОЙИ ВА РУМИИ ИЖОДИНИНГ ҚИЁСИЙ ЎРГАНИШ МАММОЛАРИ</b>	128
	<i>Dilnavoz YUSUPOVA.</i>	
13.	<b>MAVLONO JALOLIDDIN RUMIY VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA SAMARQAND TALQINI</b>	137
	<i>Илҳом ҒАНИЕВ.</i>	
14.	<b>ЖАЛОЛИДДИН РУМИИ ВА АЛИШЕР НАВОЙИ АСАРЛАРИДА ИНТЕРТЕКСТУАЛЛИК</b>	146
	<i>Islamjon YAKUBOV.</i>	
15.	<b>JALOLIDDIN RUMIY MEROSI VA ZAMONAVIY O'ZBEK ROMANCHILIGI</b>	153
	<i>Gulbahor ASHUROVA.</i>	
16.	<b>TARIXIY SHAXS TASVIRI: NAVOIY OBRAZI</b>	162
	<i>Qahramon TO'XSANOV, Muhammadamin JURAQULOV.</i>	
17.	<b>RUMIY VA NAVOIY IJODIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI</b>	170
	<i>Mahmadiyor ASADOV.</i>	
18.	<b>HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY</b>	174
	<i>Sobit AVEZOV.</i>	
19.	<b>BOQIYLIKKA DAXLDOR BITIKLAR</b>	182
	<i>Адҳамбек АЛИМБЕКОВ.</i>	
20.	<b>АЛИШЕР НАВОЙИНИНГ ТУРКИЯЛИК ШОГИРДИ</b>	187
	<i>Насиба БОЗОРОВА.</i>	
21.	<b>ҲАЗРАТИ МАВЛОНОНИНГ “МАЖОЛИСИ САБЪА” (“ЕТТИ МАЖЛИС”) АСАРИДА НАЪТ</b>	191
	<i>Yulduz ZIYAYEVA.</i>	
22.	<b>“OSHIQ-MA'SHUQA-RAQIB” OBRAZI GENEZISI</b>	198
	<i>Olmos XURRAMOV.</i>	
23.	<b>ALISHER NAVOIYNING “HOLOTI PAHLAVON MUHAMMAD”DA TARIXIY HAQIQAT IFODASI</b>	205
	<i>Hasamuddin HAMDARD.</i>	
24.	<b>AMIR ALISHER NAVOIYNING HEROT MAKTABINING TUSHUNCHALARINI TEMURIYLAR SIYOSATIGA O'TKAZISHDAGI ROLI</b>	210

25. *Leyla HƏSƏNOVA.*  
**AZƏRBAYCAN ƏDƏBİYYATINDA ROMANTİZM** 220
26. *Marifat RAJABOVA, Madina IBOTOVA.*  
**RUMIY VA NAVOIY LIRIKASIDA KO'NGIL METAFORASI** 226
27. *Sherxon QORAYEV.*  
**MAVLAVIY "GIRDI DARVESHLAR"NING RAQSU SAMO' MAJLISLARI** 231

**II SHO'BA**  
**SHARQ ADABIYOTIDA POETIKA**  
**MUAMMOLARI**

28. *Улуғбек ҲАМДАМ.*  
**ГЛОБАЛ ДУНЁДАГИ ЙЎЛЧИ ЮЛДУЗЛАР** 244
29. *Zafer TOPAK.*  
**ALİ ŞİR NEVĀYĪ'NİN TÜRKÇE DİVANLARINDAKİ ŞİİRLERİ İLGİLİ BENZETMELER VE BUNLARIN ŞAİRİN POETİKASINA KATKILARI** 254
30. *Gulnoz XALLIYEVA, Adiba MA'DIYEVA.*  
**ZAMONAVIY O'ZBEK VA NEMIS SHE'RIYATIDA BAHOR OBRAZINING BADIY TALQINI** 266
31. *Dilrabo QUVVATOVA.*  
**MUMTOZ POETIKADA MASNAVIYGA OID QARASHLAR TALQINI** 275
32. *Вусала НАСИБОВА.*  
**КОМПЛЕКС НОВРУЗОВСКИХ ОБРЯДОВ В АЗЕРБАЙДЖАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ** 279
33. *Диляра ХАЛИЛОВА.*  
**К ВОПРОСУ О МЕЖКУЛЬТУРНОМ ПОТЕНЦИАЛЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ НАВОИ И ПУШКИНА В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА** 285
34. *Оразбек МАҚПАЛ, Әнуар ЗЕРДЕ.*  
**НҮРЛАН МӘУКЕНҰЛЫ ШЫҒАРМАШЫЛЫҒЫ ЖӘНЕ АБАЙ ДӘСТҮРІ** 289
35. *Олим ОЛТИНБЕК.*  
**РАУФ ПАРФИ ШЕЪРЛАРИНИНГ ВАЗН ХУСУСИЯТЛАРИ** 297
36. *Farhad RAHİMİ.*  
**FERAĞI'NİN MİFTAHU'L-LÜGAT SÖZLÜĞÜNÜN DÜZENİ VE EL YAZMASI ÜZERİNE** 312

37.	<i>Orzigul HAMROYEVA.</i> <b>QOFIYAGA OID BIRLIKЛАRNING QIYOSIY TAHLILI</b>	325
38.	<i>Ainisa AKMATOVA, Makhlie NAZAROVA</i> <b>THE SPECIFIC PECULIARITIES OF THE EMAGE "WOMAN" IN THE EPIC MANAS AND IN ALISHER NOVOIY'S WORKS</b>	333
39.	<i>To'ju HОPOB.</i> <b>АЛИШЕР НАВОИЙ БОРЛИҚ ФАЛСАФАСИДА КОСМОС, МАКОН ВА ЗАМОН ТАЛҚИНИ</b>	341
40.	<i>Rustam SHARIPOV.</i> <b>MAHMUDHO'JA VENBUDIY VA ABDURAUФ FITRATNING MILLIY DAVLATSHILIK HAQIDAGI QARASHLARI</b>	353
41.	<i>Feruzа BURXANOVA.</i> <b>BADIIY SO'Z JILOSI</b>	370
42.	<i>Ольга ЧИЖИКОВА, Ирина ЯНОВСКАЯ.</i> <b>ЧЕРТЫ КОСМИЗМА В СТИХОТВОРЕНИИ НИКОЛАЯ КЛЮЕВА "БЕЛАЯ ИНДИЯ" И В НЕКОТОРЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ВОСТОЧНЫХ АВТОРОВ</b>	377
43.	<i>Kotiljon HAMROYEV.</i> <b>SHARQ NIKOYATLARINING TIPOLOGIK XUSUSIYATLARI</b>	386
44.	<i>Нилуфар УМАРОВА.</i> <b>ЎЛЖАС СУЛАЙМОНОВ ШЕЪРИЯТИ</b>	393
45.	<i>Zebiniso BEKMURADOVA.</i> <b>PAREMIYADA XIAZM</b>	399
46.	<i>Азамат ХАЙРУЛЛАЕВ.</i> <b>НОРМУРОД НОРҚОБИЛОВ ҲИКОЯЛАРИДА ОНОМАСТИКА</b>	404
47.	<i>Салават АЮПОВ.</i> <b>ОТЗВУКИ РУССКОЙ КЛАССИКИ В ЧЕХОВСКОМ ЭТЮДЕ "БЕЗНАДЕЖНЫЙ"</b>	422
48.	<i>پوهنيار امرالله محمدی</i> <b>بررسی زبان شناسانه استعاره مفهومی عشق در اشعار فارسی نوایی</b>	429
49.	<i>Tozagul MATYOQUBOVA.</i> <b>G'AFUR G'ULOM SHE'RIYATIDA LIRIK QANRAMON VA KESHINMANING POETIK IFODASI</b>	437
50.	<i>Ирина ЯНОВСКАЯ, Ольга ЧИЖИКОВА.</i> <b>СКУЛЬПТУРНЫЕ ОБРАЗЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ А.С.ПУШКИНА</b>	445

**Orzigul HAMROYEVA**

*filologiya fanlari doktori, professor v.b.*

*(ToshDO'TAU, O'zbekiston)*

## **QOFIYAGA OID BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI**

**Annotatsiya:** Qofiya va qofiya birliklarining ilmiy tavsifi mumtoz qofiyaga oid arab, fors va turkiy tildagi ilmiy-nazariy manbalarda alohida tadqiq etilgan. Xususan, radif, hojib masalasi va uning arab, fors va turkiy adabiyotdagi qo'llanish o'rni, paydo bo'lish ehtiyoji baytlar asosida dalillangan. Maqolada qofiya, radif, hojib – qofiya birliklarining manbaviy tadqiqi amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** qofiya, radif, hojib, harora sher, mahjub, muraddaf.

**Abstract:** The scientific description of rhyme and rhyme units is separately studied in scientific and theoretical sources in Arabic, Persian and Turkish on classical rhyme. In particular, the issue of radif, hajib and its place of application in Arabic, Persian and Turkish literature, the need for its emergence is substantiated on the basis of verses. The article conducts a source study of rhyme, radif, hajib – rhyme units.

**Keywords:** rhyme, radif, hajib, harora sher, mahjub, muraddaf.

Qofiyaga oid risolalarda radif va hojib qofiyaning asosiy birlik, unsuri sifatida keltiriladi. Radif bayt misralari oxiridagi takrorlanuvchi so'z bo'lib, ohangdoshlikni ta'minlab beruvchi asosiy unsurdir. Atoullah Husayniy "Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi" asarining 9-qismida radif va hojib tushunchalarini izohlaydi [2, 36]. Rashididdin Vatvot "Hadoyiq us-sehr" asarida muraddaf san'ati sharhida radif, ridf va hojib tushunchalarining farqli xususiyatlarini tushuntiradi [9, 164]. Nosiriddin Tusiyning "Me'yor ul-ash'or" asarining 2-qism 6-faslida "Qofiya harflari, harakatlari va radif zikri fors olimlari nazdida" sarlavhasi ostida radif va hojib tushunchasi batafsil izohlangan [7, 122].

Rashididdin Vatvot "Hadoyiq us-sehr" asarida radif va ridf tushunchalarini qiyosiy o'rganadi. Radif – fors adabiyotida qofiyadan keyin keluvchi bir yoki bir necha so'zdan iborat takrorlanuvchi qism ekanligini qayd etadi [9, 164]. Rashididdin Vatvot arab adabiyotida radif mavjud emasligini ta'kidlab, uning qo'llanishi fors adabiyotiga xos xususiyat ekanligiga ishora qiladi. Arab adabiyotida radif she'rni murakkablashtiruvchi vosita

sifatida qaralib, zamonaviy arab she'riyatida ba'zi shoirlar ijodida uchrashini aytadi. Olim shu o'rinda radif ishlatilgan baytga na'muna sifatida Faxri Zamaxshariyning Xorazmshoh madhiga bag'ishlangan qit'asini keltiradi. Rashididdin Vatvot ushbu baytda Zamaxshariy ham forslar kabi radif ishlatganini aytadi.

*Al-fadlu hassalahu Alou-d-Davlati*

*Va-l-majdu assalahu Alou-d-Davlati. [9, 164]*

Olim fors she'riyatida radif ishlatilgan baytlardan na'muna sifatida o'z ijodiga murojaat etadi.

*Nazom hole zamone qavome kore jahon,*

*Tamom gasht beiqbole shahriyore jahon.*

Vatvot keltirgan yuqoridagi baytda yaxlit bir so'z – jahon so'zi radif vazifasini bajargan bo'lsa, na'muna sifatida keltirilgan keyingi baytda radif yordamchi fe'l bilan ifodalangan:

*Mo ro bahore eysh mohanno konad hami*

*Asbobe sad neshot mohayyo konad hami. [9, 164]*

Olim fors she'riyatida radif muhim ahamiyatga ega ekanligi, radifning o'z o'rnida, she'r mohiyatiga mos tanlanishi ijodkor mahoratidan darak berishini ta'kidlaydi.

Atoulloh Husayniy "Risolai dar qavoyidi ilmi qavofi" risolasida radifga atroflicha ta'rif beradi. Risolaning 9-maxsus qismida "Radif va hojib" sarlavhasi ostida o'zining radifga oid qarashlarni taqdim etadi. Olim radifga bir yoki bir nechta so'zdan iborat bo'lgan asosiy qofiyadan keyin takrorlanuvchi mustaqil so'z deya ta'rif beradi [2, 66]. Atoulloh Husayniyning bu ta'rifi radifning misradagi o'rni, tarkibi, shakli kabi barcha xususiyatlarini qamrab olgan. Olim radif she'r mohiyatiga mos tanlanmasa, katta kamchilik ekanligiga alohida e'tibor qaratadi.

*Yo Rab, tu xalosim zi har isyon deh,*

*Tashrifi libos rahmati g'ufyon deh.*

*Nay-nayki murodi tust maqsudi dilam*

*Ya'ni ki ba man har chi tu xohiy on deh.*

"Risolai qofiya" da keltirilgan ushbu baytda deh so'zi radif va isyon – g'ufyon – on so'zlari qofiya sanaladi. Atoulloh Husayniy radifga ta'rif berish barobarida Shams Qays Roziy va Nosiriddin Tusiyning radif borasidagi qarashlarini ham keltiradi. Nosiriddin Tusiyning raviyga ulangan vasldan keyingi takrorlanuvchi qofiya harflari

radif ekanligi xususidagi fikrga o'zining tanqidiy munosabatini bildiradi. Atoullah Husayniy bu holat "she'r usullari"ga kirmasligini ta'kidlaydi.

Atoullah Husayniy radifning qo'llanishi zarurat emasligi, qo'llangan radif she'rda boshdan oyoq takrorlanishi, she'r mohiyati va vazniga tushishi kerakligi, radifga ega qofiyali bayt muqaffoyi muraddaf deb nomlanishiga doir ilmiy-nazariy qarashlarini taqdim qiladi.

*Sapayda dam ki nasimi bahor mioyad,  
Nigoh kardam didam ki yor mioyad.*

*Zi bahri fol zi moziy shudam ba mustaqbil,  
Ki bar anom chunin xushguvor mioyad,*

*Zihi rasida g'oyati ki pesh xotiri tu,  
Hama nihon sipehr oshkor mioyad [2, 69].*

Vohid Tabriziy "Jam'i muxtasar" asarida radifni qofiya bilan bir butunlikda tushunish kerakligini aytadi. Radif – bir yoki bir necha so'zdan iborat bo'lib, raviydan keyin keluvchi, aynan shu shaklda barcha misraning oxirida takrorlanuvchi qism [3, 86].

Shamsiddin Qays Roziy "Al-mo"jam" asarida qofiya va radifning qiyosiy tadqiqini amalga oshiradi. "Qofiya misra oxirida kelib, boshqa misra va baytlar so'ngida takrorlanmasligi kerak. Agar bu so'z misra oxirida takrorlansa, radif sanaladi, qofiya odatda radifdan oldin keladi" [10, 172]. Olim asarning yana bir o'rnida "shakar dorad – qamar dorad" qofiyadosh so'zlarini izohlar ekan, "shakar – qamar" so'zlari qofiya bo'lib, "dorad" yordamchi so'zi radif vazifasini bajarganini va bu qofiya muraddaf qofiya sifatida nomlanishini ta'kidlagan.

*Ruxi tu ravnaqi qamar dorad,  
Labi tu lazzati shakar dorad [12, 81].*

Demak, olim radifni qofiya bilan uzviylikda tushuntiradi. She'r mazmun-mohiyatiga ko'ra radifga muhtoj bo'lmasligi kerakligini uqtiradi.

Faxri Isfahoniy "Me'yor ul-jamoli" asarida radifga alohida e'tibor qaratiladi. Olim radifni qofiyadan alohida, mustaqil bir hodisa sifatida baholaydi. Radif qofiyadan ayrilgan alohida mustaqil

soʻz boʻlib, baytlar oxirida takrorlanishi, sheʼr mazmun va shakl jihatidan radifga muhtojligini taʼkidlaydi. Faxri Isfahoniy fikrining isboti sifatida ikki ruboiyni tahlilga tortadi.

*Ayyom ba kami shayx Abu Ishoq ast,*

*Ajram ba kami shayx Abu Ishoq ast.*

*Gu dushman-i kurbaxti xunxoʻr ki falak,*

*Madam ba kami shayx Abu Ishoq ast. (121).*

Eʼtibor berilsa, Faxri Isfahoniy radifning bir nechta soʻzdan iborat yoyiq shakli aks etgan ruboiyni naʼmuna sifatida keltirgan. Faxri Isfahoniy keyingi ruboiyning izohida butun misra qofiya va radifdan iborat boʻlishi, qofiyaga olingan soʻz ikki harfdan (bir mutaharrik va bir sokin) boʻlishi mumkinligini aytib, naʼmuna sifatida keltiradi.

*Yam guft ki man haq-i Abu Ishoqam.*

*Jam guft ki man haq-i Abu Ishoqam.*

*Xurshid ki abi ruhi ajram az u-st,*

*Ham guft ki man haq-i Abu Ishoqam.*

Husayn Voiz Koshifiy ham “Badoe ul-afkor” asarining Xotima qismida qofiya va qofiyaga oid tushunchalar haqida maʼlumot berib, radifga taʼrif beradi. Olim radif ikki asosiy: sheʼrning badiiyligini oshirish va ijodkor mahoratini koʻrsatib berish xususiyatlarini sanaydi [6, 28].

Nosiriddin Tusiy “Meʼyor ul-ashʼor” asarida arab va fors adabiyotidagi nazariy qarashlarni qiyosiy oʻrganadi. Qofiya ilmi tadqiqiga bagʻishlangan qismda arab adabiyoti va fors adabiyotidagi tafovutlarni birma-bir koʻrsatib beradi. Tusiy dastlab radifning paydo boʻlish tadrijiga eʼtibor qaratadi. Olim Shams Qays Roziy singari radif arab adabiyotida emas, fors adabiyotida paydo boʻlganiga ishora qiladi. Keyinchalik arab shoirlari forslardagi bu unurni oʻzlashtirib, sheʼrlarida qoʻllay boshlaganlarini taʼkidlaydi. Olim asarning “Dar huruf va harakoti qavofi nazdiki porsigoʻyon va zikri radif” qismida raviydan keyingi har qanday takrorlanuvchi harfni radif sifatida baholaydi. “Va chun maʼnii radif rʼyshan shud, maʼlum shud, ki on chi baʼd az ravā va vasl oyad, agar yak harf boshad va agar ziyodat, jumla az hisobi radif buvad” [8, 122]. Ayni oʻrinda olim vasl va radifning farqlari xususida toʻxtaladi. Dastlab raviydan keyingi harflarni radif ekanligini taʼkidlagan olim, raviydan keyin

keluvchi vasl harfini qofiya bilan uzviy bog'liqligini, qofiya tarkibida bir so'z holda bo'lishini ta'kidlaydi. Vasl harfi shu xususiyati bilan radifdan farq qilishini aytadi.

Nosiriddin Tusiy radifning o'rni va takror kelishi uning qat'iy xususiyatlaridan biri ekanligiga alohida urg'u beradi. Radif takror kelishi shart, she'r tarjima qilinganidagina radif tushib qolishini kechirish mumkinligini ta'kidlaydi.

Yusuf Aziziyning "Aruz" risolasida ham radif nazariyasi, qo'llanish o'rni, tarkibi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Yusuf Aziziy radifni ikki ma'noda ishlatadi. Birinchisi, qofiyadan keyin keluvchi tarkorlanuvchi mustaqil so'z. Ikkinchisi esa, Nosiriddin Tusiy aytganidek, raviydan keyingi takrorlanuvchi qism. Sharqshunos olim R.Musulmanqulov ham Yusuf Aziziyning radif borasidagi fikrlari Nosiriddin Tusiy qarashlari bilan juda o'xshash ekanligini qayd etadi. Bunda arab va ajam shoirlari raviyning mutaharrik va sokin holda bo'lishi muhim ekanligini aytadilar. Agar raviy sokin holda bo'lsa, bunday holatda raviydan keyingi hurufning qofiya bilan bog'liqligi qolmaydi va ular qofiyadan tashqarida turuvchi takrorlanuvchi harflar sanaladi. Shuning uchun ham ular radifning bir turi sifatida taqdim qilinadi. Bunda raviy va vaslning ulab turuvchi harakat - majroning ishtiroki muhim. Raviy mutaharrik bo'lsa, demak, undan keyingi harflar vasl, xuruj, mazid, noyira shaklida qofiya harflari sifatida taqsimlanadi.

Mumtoz poetika ilmiga bag'ishlangan muhim manbalardan biri Najotiy Nishopuriyning "Risolai piro'ziy va maqolai navro'ziy" risolasida ham radif nazariyasi batafsil yoritilgan. Olim risolada qofiyasiz, ammo radifli she'r shakli haqida ma'lumot beradi. "Forlarda yana bir she'r shakli bo'lib, uni jarada (xarada, xasrada?) deb ataydilar. Bunday she'r shaklida qofiya bo'lmaydi, biroq misralar so'ngida takrorlanuvchi radif ishtirok etadi". Najotiy zamonaviy fors shoirlari ijodida bunday she'r shakli uchramasligini ta'kidlab, qofiyasiz radif takrorlangan bayt sifatida 4 baytdan iborat Sanoiyning she'ridan na'muna keltiradi. R.Musulmanqulov Najotiy na'muna sifatida keltirgan bu baytdagi radifni alohida tahlilga tortadi [7, 95-116].

Aruz va qofiya ilmi nazariyasiga oid maxsus risola yaratgan Abdurahmon Jomiy "Risolai qofiya" asarining Muqaddima qismida

bir jumla bilan radifga ta'rif beradi. "Radif deb shunday kalimani ayturlarki, bu kalima hamma baytlar oxirida bir xil tarzda takrorlanib kelsin" [1, 301]. Jomiy ham radif ishlatilgan qofiya murdaf qofiya deb nomlanishiga e'tibor qaratadi.

Demak, radif tushunchasi mumtoz poetikaga oid risolalarning deyarli barchasida ilmi qofiyaning tarkibiy qismlaridan biri sifatida tadqiqqa tortilgan. Bu risolalarda radif tushunchasi bilan parallel ravishda hojib tushunchasi, uning o'ziga xos xususiyati haqida ham yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan [10, 76].

Hojib. "Hojib" so'zi "pardador, berkituvchi" degan ma'noni anglatadi. Hojib mumtoz qofiyaning muhim unsurlaridan biri bo'lib, radif singari takror asosiga quriladi. Biroq bu takror radifdan farqli o'laroq, qofiyadan oldin joylashadi. "Me'yor ul-ash'or" muallifi Nosiriddin Tusiy hojibni "kard yod, kard shod" so'zlari misolida tushuntiradi. Ushbu so'zlardagi "yod - shod" so'zlari qofiyadosh so'zlar sanalsa, qofiyadan oldingi takrorlanuvchi "kard" so'zi hojib sanaladi [7, 123].

Rashididdin Vatvot "Hadoyiq us-sehr" asarida radif takrorlanish xususiyati bilan hojibga o'xshashini, faqat hojib qofiyadan oldin joylashishini ta'kidlaydi:

*Ey shahi zamin bar osmon dori taxt,*

*Sust - ast aduv to kamon dori saxt.*

*Hamlai sabok ori-u giran dori raxt.*

*Piri to bedonisho javon dori baxt.*

Olim hojib qo'llangan bayt bir qancha olimlar tomonidan mahjub bayt nomi bilan atalishiga ishora qiladi [9].

Vohid Tabriziy "Jam'i muxtasar" asarida hojibni radifning shakli sifatida tanishtiradi. Biroq u hojib raviydan oldin takrorlanib kelishini, bunday she'r mahjub she'r deb nomlanishini ta'kidlaydi. Vohid Tabriziy asarida bir necha marotaba Shamsiddin Qays Roziyning "Al-mo'jam" asariga murojaat etadi. Shams Qays Roziyning hojib haqidagi qarashlarini taqdim qilgan holda o'z munosabatlarini bildiradi [3, 139].

Atoullah Husayniy "Risoi dar qavoyidi ilmi qavofi" asarida hojib ikki qofiya o'rtasida kelishi kerakligini aytadi. Faxri Isfahoniy ham ikki qofiya o'rtasidagi takrorlanuvchi so'z hojib ekanligiga urg'u beradi. Demakki, hojib ishlatilgan baytlar ichki qofiyaga

asoslanadigan san'at turlarini yuzaga keltiradi. Atoullloh Husayniy hojibning qo'llanishi majburiyat bo'lmay, u ijodkor ixtiyoriga bog'liq ekanligini aytadi [2].

*Ey shoh, bar osmon dori taxt,  
Sust ast adu to tu kamon dori saxt.  
Hamla-i sabuk ore giron dori raxt,  
Piri tu ba tadbir-u javon dori baxt.*

Atoullloh Husayniy keltirgan ushbu ruboiyda hojib (dori) ikki: asosiy va ichki qofiya o'rtasida kelgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, qofiya ta'rifi, qofiyaning asosiy xususiyatlari, qonuniyatlari risolalarda qat'iy qoidalar asosida ishlab chiqilgan. Radif va hojib qofiya bilan yonma-yon kelgani bois qofiyaning tarkibiy qismi sifatida tadqiq etilgan. Garchi risolalarda qofiya, radif va hojib qonuniyatlari mualliflarning o'ziga hos uslubi, yondashuvi asosida tushuntirilsa-da, barcha qarashlarda umumiylik ko'zga tashlanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Абдурахмон Жомий. Рисолаи қофия // Шарқ мумтоз поэтикаси. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 2009. –Б.301
2. Атоуллоҳ Хусайний. Рисолаи дар қофия. – Техрон. ҳ. 1393. – С.36.
3. Вохид Табризи. Джем и мухтасар. Критический текст, пер. и примеч. А.Е.Бертельса. – М.: Наука, 1959. – С.139.
4. Jalolovna H.O. (2022). IMPROVEMENT OF THE SCIENCE OF RHYME IN TREATISES OF THE TIMURID PERIOD. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 10, 342-348.
5. Jalolovna H.O. (2024). The Effect Of The Original Rhyme On The Content (Based on Babur's Rubaiyat). American Journal of Advanced Scientific Research, 1(1), 141-142.
6. Камал ад-дин Хусайн Ва-из Кашифи. Бадаи-ал-афка-фи сан-и ал-ашъар (Новые мысли о поэтическом искусстве) Издание текста, предисловие, примечания и указатели Р.Мусульманкулова. – М.: Наука, 1977. –с. 28
7. Мусульманкулов Р. Персидско-таджикская классическая поэтика X-XV вв. – М., 1989. – С. 95-116.

8. Насируддини Тўсий. Ми'йар ал-аш'ор. / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Ҷалол. – Душанбе: Ориёно, 1992. – С. 122.

9. Рашид ад-дин Ватват. Хада'иқ ас-сеҳр фи дақа'иқ аш-ши'р. Перевод с персидского и комментарий и факсимиле Н.Ю.Чалисова – М.: Наука, 1985. – С.164

10. Ҳамроева О. Темурийлар давридаги поэтикага доир рисолаларда қофия илмининг қиёсий таҳлили. - Т., 2022.

11. Ҳамроева О. Мумтоз қофиянинг назарий асослари. Қўлланма. - Т., 2023.

12. Шамси Қайси Розий. Ал-Муъжам фи маъойири ашъору-л-ажам. Перевод с персидского исследование и комментарий Н.Ю.Чалисова. – М.: “Восточная литература” РАН, 1997. – С. 172.